

# Uchinchi - hal qiluvchi chorak boshlandi!



www.tongyulduzi.uz

2011-yil  
17-yanvar  
N:3  
(66804)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

Suratlar muallifi Olovuddin Oripov



## TA'TIL ZAVOI

Yangi yil tantanalariga ulanib ketgan qishki ta'tilni maroqli, mazmunli o'tkazgan respublikamiz o'quvchilari uchinchi - hal qiluvchi chorakni ko'tarinki kayfiyatda boshlab yuborishdi.

Boisi, ular ko'plab tadbirlarda, archa bayramlarida, teatr tomoshalarida bo'lishdi, Qorbobo va Qorqizdan sovg'a-salomlar olishdi. Yovuzlikning umri qisqaligiga, ezgulikning tantanasiga yana bir bor amin bo'lishdi.

Jumladan, Namangan viloyati, Namangan tumanining Sho'rqo'rg'on qishlog'idagi «Istiqlob» muzeyida bo'lib o'tgan «Shoirlar - bolalarga» nomli ijodiy uchrashuvda taniqli shoirlarning yangi she'rlaridan tinglashdi. Hamda o'z ijod namunalaridan ham o'qib berishdi.

Poytaxtimizdagi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablarining 325 nafar o'quvchilari O'zbek Milliy akademik teatrida «Marvarid» nomli musiqa va raqs dastasi ishtirokchilarining badiiy chiqishlaridan bahramand bo'lishdi.

Shuningdek, Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi umumta'lim maktablarining bir guruh el hurmatidagi ustoz va murabbiylari ham ta'tilda madaniy hordiq chiqarishdi. Tumandagi 77 ta maktabdan 40 nafar o'z kasbining fidoyilari bo'lgan o'qituvchilar tanlab olinib, Toshkent shahri bo'yab sayohatga kelishdi. Azim poytaxtimizning betakror manzarasidan bahramand bo'lib, yangi kuch-g'ayrat bilan mehnat faoliyatiga kirishib ketishdi.



**TUZ HAQIDA NIMALARNI BILASIZ?**



Mamlakatimizda Tuzkon, Sho'rtepa, Namangan kabi jug'rofiy nomlar tuz bilan bog'liq.

Hindistondagi Levanapo'tra shahri nomi o'zbekchada «Tuz shahri» demakdir.

Fransiyaning Marsel shahri nomi esa «dengiz tuzi» degan ma'noni beradi.

\*\*\*

Tuz bilan bog'liq maqollar ham ko'p:

«Bir kun tuz ichgan joyingga, qirq kun salom ber», «Sho'ri qurib qolibdi-ku!», «Tuzimni ichib, tuzlig'imga tupirdi», «Peshonasi sho'r ekan».

\*\*\*

Tuz inson a'zolaridagi barcha fiziologik jarayonlarda g'oyat muhim o'rin tutadi: so'lakda ham, me'da shirasida ham, safroda ham, hujayralar tarkibidagi suyuqlikda va qonda ham tuz bor.

Insonning tuzsiz yasho'masligi shundan.

\*\*\*

Tarixda «tuz urushlari», «tuz soliqlari», «tuz qo'zg'olonlari» bo'lganligi ham ma'lum.

\*\*\*

Inson bir kunda taxminan 20 gramm tuz iste'mol qiladi. Bir oyda 600 gramm, bir yilda bu miqdor 7 kilogrammi tashkil etar ekan.

oshiy, guzarda ham sotila boshladi. Bu ham tadbirkorlik!

Zilolaga barcha sinfdoshlari havas qilishadi. Dugonalari ichida birinchi bo'lib unga kompyuter olib berishdi. Ota-onasining erkasi ekan-da, deya xulosa chiqarishga oshiqmang. Bitiruvchi sinfda o'qiyotgan Zilola qo'ligul do'ppido'z. Buvisidan bu hunarning nozik sir-asrorigacha qunt bilan o'rgandi. Dastlab tikkan do'ppilaridan sira ko'ngli to'lmagan bo'lsa, bora-bora tajribasi ortib, hunaridan ko'ngli yayray boshladi. O'zi o'ylab topgan chiroyli nusxadagi do'ppiga «Mo'jiza» deb nom berdi. Hozir «Mo'jiza»ga buyurtma bergan xaridorlar ikki-uch oy lab kutib qolishyapti. Do'ppilari qo'llariga tekkach, xursand bo'lib, chevar qizni alqashadi.

Yuqoridagi tengdoshlarinigiza, ochig'i, mening ham havasim keldi. O'z ehtiyojlarini qondirish bilan birga, oilaga ham tayanch bo'lmoqdalar. Ular sizning tengdoshlaringiz. Siz ham bir urinib ko'ring. Balki boshqa bir sohada mashhur bo'lib ketarsiz...

Yusuf ABDULLAYEV

**BO'SH KELMANGI**



Bir necha yildan buyon mamlakatimizda har bir yil ma'lum bir nom bilan atalib, ma'lum soha rivoji yo'lida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur yilimiz «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik» yili deb e'lon qilindi.

O'quvchi do'stim! Buyog'i aka-opalar yili ekan-da, degan xayolga bormang, yil hammamizniki! Ko'p qatori siz ham bu yil o'z omadingizni sinab ko'ring.

Yettinchi sinfda o'qiydigan tengdoshingiz Shuhrat o'z qo'li bilan tovuq katak yasadi. Ota-onasi bergan pullarni bekorchi narsalarga sarflamay yig'ib yurgandi. Ikki dona zotdor tovuq sotib olib, mehr bilan parvarishlay boshladi. Tovuqlari tuxumga kirganda, uning quvonchini ko'rsangiz edi. Eng qizig'i, bir kuni otasining do'stlari mehmonga kelib qolishdi. Uyda go'sht yo'qligini tovuq tuxumlari sezdirmedi. Shuhratning otasi o'g'lining ziyrakligi, tadbirkorligini alqab charchamaydi, deng.

Bu orada yosh tadbirkor parranda boqishga oid ko'plab kitoblarni o'qib chiqdi. Tovuqlari soni ortib, ularni o'z vaqtda emlashni ham unutmaydi. Tuxumlari mahalladan

O'tgan o'quv yilida maktabimiz to'la ta'mirlandi. Kimyoviy laboratoriya o'tkazish uskunalarini keltirildi-yu, mo'jiza sodir bo'ldi. Kutobdagi formulalar jonlana boshladi.

ishtirok etishga qaror qildim va maktabdoshlarim orasida faxrli ikkinchi o'rinni egalladim. Lekin 42-maktabda o'tkazilgan olimpiadaning tuman bosqichida yaxshigina hayajonlandim. Boisi,

zerikarli tuyulardi. Ustozimiz doskaga yozgan formulalarni ham, kitobdagi kimyoviy tenglamalarni ham tushunolmay xunob bo'lardim. Fan olimpiadasidagi ishtirokim bois bu fanga mehrim ortdim va uni mo'jizaviy fan, degim keldi.

**MAKTABDAGI MO'JIZA**

**EZGU NIYAT YO'LIDA**

Mamlakatimizda 2011-yil «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deb e'lon qilinganidan xabarimiz bor. Ayni damda mazkur yo'nalish bo'yicha keng qamrovli ishlar boshlab yuborildi. Joriy yilning 5-7-yanvar kunlari «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi hamda «O'zbekiston temir yo'llari» DATK hamkorligida «Vatan ravnaqi yo'lida birlashaylik!» shiori ostida korxonalar, tashkilot va muassasa yoshlarining II Respublika anjumani bo'lib o'tdi. Respublikamizning barcha hududlaridan tashrif buyurgan 100 dan ziyod boshlang'ich tashkilotlar yetakchilari anjuman davomida boy taassurotlarga ega bo'ldilar.

«O'zbekiston temir yo'llari» DATK faoliyati bilan yaqindan tanishish, bu sohada Markaziy Osiyoda ilk bor sinalgan loyihalarni taqdimoti ishtirokchilarning qalbida g'urur tuyg'usini uyg'otgani shubhasiz.

O'z muxbirimiz

Moddalar kimyoviy reaksiya paytida rangi, hidi va xususiyatini o'zgartiradi. Bu qiziqarli hodisaning formulasi xotiramda mustahkam o'mashadigan bo'ldi. Ko'plab sinfdoshlarimning ham bu fanga qiziqishlari orta bordi. Bundan ilhomlangan ustozimiz Nodira opa Abdullayeva darslarni noan'anaviy tarzda o'ta boshladilar. O'yindarslarda olgan bilimlarimizni laboratoriya soatlarida mustahkamlaydigan bo'ldik.

Joriy o'quv yili boshida turli fanlar bo'yicha maktab olimpiadasi o'tkazildi. Men hech ikkilanmay kimyo fani yo'nalishida

minglab bilimdon tengdoshlarim o'zlarini qiziqqan fan yo'nalishida bilimlarini sinab ko'rishga kelishgandi.

Kimyo bo'yicha bellashuv uch bosqichda o'tkazildi. Har bosqichdan so'ng ishtirokchilar bilan yechimi o'ylantirgan savollar, tenglamalar, masalalar borasida fikrlashib, tanishib oldik. Kimyoga qiziqqan, o'zim bilan hamfikir dugonalar ortirdim. Tumanda faxrli uchinchini o'rinni egallab, yanada ko'proq o'qishim kerakligini angladim.

Kimyo fani bizga dastlab o'qitila boshlaganida u men uchun o'ta murakkab va



Mayjuda XUDOYBERGANOVA, Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 115-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi

O'smir nigohi

**CHUMCHUQCHA**

— Maktabdan uyga kelgan Sobirjon biroz televizor tomosha qildi. Ammo yana zerika boshladi. Fab-yangi velosipedini minib, mahallani ikki marta aylanib chiqdi. Lekin baribir o'ziga «munosib» mashg'ulot topolmadi. Nima qilishini bilmay gilos daraxti tagidagi yumshoq mayjada ko'm-ko'k osmonga termulib, allanarsalar haqida xayot surdi.

Shunda uning diqqatini tinmay u shoxdan bu shoxga qo'nayotgan mitti chumchuqcha tortdi. Bir narsa yodiga tushgandek yugurib uyiga kirib ketdi va kuni kecha o'zi yasagan «qo'lbola cho'zma»ni ko'tarib chiqdi. Yerdan dum-dumaloq tosh olib, qushchani mo'ljalab turib otdi. Bechora chumchuqcha «tap» etib yerga tushdi-yu, jon holatda tipirchilay boshladi. Sobirjon yugurib borib, uni qo'lga oldi-yu, negadir birdan juda qo'rqib ketdi. Kichkinagina oyoqchasi mayib bo'lgan sho'rlik qushcha munchoqdek ko'zlarini



Sobirjonga tikib di-dir qaltirardi. «Voy-y-y, nima qilib qo'ydim?» — o'yiladi ichida u: «Oyog'i rosa og'riyotgan bo'lsa kerak bechora qushchaning». Shu payt mo'jiza yuz berib, Qushcha tilga kirdi: — «Voy jonim, voy jonim-ey! Hoy bola, nega bunday qilding? Qara, mayib bo'lib qoldim-ku... Endi boshlagan ishimi qanday

nihoyasiga yetkazaman? Voy, oyijon-n-n!...» — qushcha shunday dedi-yu, hushidan ketdi.

Sobirjon uni darrov uyga olib kirdi. Oyoqchasi yumshoq mato bilan bog'lab qo'ydi. «O'ziga kelganida yer», deb oldiga biroz don va suv qo'ydi. Shunday qilib, qushchani parvarish qilishga kirishdi. Qushcha uch kunda ancha tuzalib qoldi. Bu orada ular, do'stlashib ham oldilar. Bir necha kundan so'ng, xayrlashuv onlari ham yetib keldi.

— Mana, sog'ayib ham ketdim. Endi men ketaman. Lekin seni aslo unutmayman, — dedi qushcha shodon chug'urlab.

— To'xta, to'xta, mitti do'stinam! Seni mayib qilgan kunim qandaydir bir

## DUGONALAR QUVONCHI

**Pskentlik ikki dugona Saida va Dilsora poytaxtda o'tadigan tanlovga bir olam hayajon bilan kelishdi. Negaki, tanlov ishtirokchilarining bari o'zlari kabi iqtidorli o'quvchilar ekanligini juda yaxshi bilishardi. «Saida Ortiqboyeva hamda Dilsora Abdusattorova «Xorazm» raqsini ijro etishadi» degan o'lonni eshitganlarida esa hayajonlari ikki barobar ortdi. Hulkar Abdullayevaning qo'shig'i yangragach, ular o'zlarini qo'lga olib, ustozlari Rahima Mirxoliqova o'rgatgan raqsni ijro eta boshlashdi.**



Endigina 10 yoshga to'lgan Saida 5 yoshidanoq 30-son musiqa maktabiga qatnagani, qolaversa, uning san'atga bo'lgan mehri va iqtidori o'z natijasini ko'rsatdi. Hay'at a'zolari bir ovozdan «Xorazm» raqsi ijrochilari Saida Ortiqboyeva va Dilsora Abdusattorova-

ni «Yangi avlod» Respublika bolalar ijodiyoti festivali laureatlari deb e'lon qildilar. Bu quvonchli xabardan nafaqat, Saida va Dilsora, balki ularning ustozlari, ota-onalari ham behad shod bo'lishdi.

– Saida iqtidori bilan boshqa o'quvchilardan ajralib turadi, – deydi uning fortepiano o'qituvchisi Hilola Xo'jayeva. – Buni men 5 yil avval yonimga 5 yoshli qizaloqni olib kelishganidayoq payqaganman. O'shanda Saida uch-to'rt soatga mo'ljallangan mavzularni bir soatda osonlik bilan o'zlashtirib olardi. Hozirda u Pskent tumanidagi 2-maktabning 5-sinfida o'qish bilan birgalikda musiqa maktabining 5-sinfini a'lo baholarga o'zlashtirmoqda.

– Dilsora «Istiqlol g'unchalari» nomli to'garakning eng iste'dodli

a'zolaridan hisoblanadi. Uning dugonasi Saida bilan «Yangi avlod» bolalar ijodiyot festivalida ishtirok etishini eshitib, juda quvongandim. O'sha kundan boshlab, o'quvchilarim ushbu tanlovda g'olib bo'lishlari uchun astoydil mehnat qila boshladik. Mana, bugun mehnatimiz samarasini ko'rib, sevinchimni ichimga sig'dirolmayapman, – deydi quvonch bilan to'garak rahbari Rahima Mirxoliqova.

– Katta bo'lganimga shifokor bo'lishni orzu qilaman. Lekin san'atga bo'lgan mehmim meni mana shu nufuzli tanlovga yetaklab kelganidan judayam xursandman, – dedi Saida hayajonini yashirolmay.

Uning so'zlariga dugonasi Dilsora ham qo'shimcha qildi:

– Festivalda laureat bo'lganimizga avvaliga

ishonolmadim. Keyin esa quvonchimdan yayrab ketdim. Chunki, bu hayotimdagi eng katta muvaffaqiyatim edi.

Qizaloqlarni ulkan muvaffaqiyatlari bilan qutlab, ularga kelajakda yuksak parvozlar tiladik.

Gulyuz BAHODIR qizi



ishni boshlamoqchi ekaningni aytgan eding. Agar sir bo'lmasa, shuni menga aytasang, – dedi Sobirjon sal uyalinirab.

– Ha, bu yerga juda muhim bir ish bilan kelgan edim. Onam meni deb tuzoqqa tushib qoldilar. Bir kuni qo'shni chumchuq bolalari bilan ko'chada rosa o'ynab, uyga kelsam, oyim meni ko'zlari to'rt bo'lib kutib o'tirgan ekanlar. Oldimga bir talay non ushoqlarini qo'yidilar. Ammo negadir o'sha payt mening non ushog'i emas, bug'doy yegim keldi. Oyimga, bug'doy topib berasiz, deya xarxasha qildim. Onam elak, ip va tayoqdan yasalgan tuzoq yoniga bordilar. Men tomonga: «Eh, bolajonim-a...» degandek mungli qaradilar-u, tuzoq ichiga kirib, tez-tez don cho'qiy boshladilar. Shu payt elak onamning ustiga «tap» etib tushdi. Men qo'rquvdan

karaxt bo'lib qoldim. O'zimga kelganimga esa bir bolakay onamni qafasga solib, uyga olib kirib ketayoigan edi. Bechora oyijonimni, o'shandan beri ko'rganim yo'q... Qushcha shunday deya o'pkasi to'lib yig'lab yubordi.

– Hafa bo'lma qushcham, senga onangni topishda yordam beraman, – dedi Sobirjon unga achinib.

– Chumchuqcha bag'oyat xursand bo'lib, onasini qafasga solgan bolaning uyini ko'rsatibdi. Bu mahalla bolalariga otning qashqasidek tanish bo'lgan zo'ravon Hasanboyni uy edi. Sobirjon «qult» etib yutindi-yu, do'stiga bergan va'dasi ustun kelib, asta uy eshigini qoqdi. Eshikni Hasanboyni o'zi ochdi. Yaqindagina tarvuz yegan bo'lsa kerak, ikki lunji shiradan yaltirab turardi.

– Ha, qiltiriy, nega kelding? –

so'radi u pinagini ham buzmay.

– Senda bir narsa bor ekan, o'shani olgani keluvdim, – dedi Sobirjon ovozi qaltirab.

– Xo'sh, nima ekan u? – so'radi Hasanboy ko'ptokday qornini qashlab.

– Chumchuq, chumchuqcha!  
– Chum-chuq degin... Evaziga nima berasan?

– Istaganingni!  
– Hm... Menga dadang yaqinda sovg'a qilgan yaltiroq muqovali yon daftarchang yoqadi. Evaziga o'shani berasan.

– Axir u sovg'a-ku! – ovozi tundlashdi Sobirjonning.

– Istasang shu, istamasang katta ko'cha.

Hasanboy shunday dedi-yu, ikki qo'lini keng ochib, kerishdi.

### Ona tili va adabiyot fanidan TEST

1. Ravishning ma'no turlari necha turga bo'linadi?

- A) 3 turga: holat, payt, modal ravishlari;
- B) 4 turga: holat, miqdor, daraja, o'rin-payt ravishlari;
- D) 5 turga: kishilik, o'zlik, o'rin-payt, so'roq, belgilash ravishlariga.

2. Undov so'zlar ishtirok etgan qatorni toping.

- A) eh, oh, evoh, hoy;
- B) qars-qurs, ey, shekilli;
- D) ehtimol, duv-duv, albatta.

3. Gapdagi gumon olmoshini aniqlang.

Allaqanday narsa ko'zimga ko'ringanday bo'ldi.

- A) narsa;
- B) menimcha;
- D) allaqanday.

4. «Insho» so'zining ma'nosi keltirilgan qatorni belgilang.

- A) ijodiy yozma ish;
- B) erkin fikr;
- D) bayon qilish.

5. Sintaksis bo'limi nimani o'rganadi?

- A) so'z birikmasini;
- B) tinish belgilarini;
- D) so'z turkumlarini.

6. «Kuntug'mish» dostoni qaysi baxshilar tomonidan yozib olingan?

- A) Ergash Jumanbulbul o'g'li; Bekmurod Jo'raboy o'g'li; Nurmon Abduvoy o'g'li tomonidan;
- B) Nurmon Abduvoy o'g'li; Akbarxo'ja, Buvraxon tomonidan;
- D) Ergash Jumanbulbul tomonidan.

7. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarining Qohira nusxasi nechanchi yilda topilgan?

- A) 1823-yilda;
- B) 1896-yilda;
- D) 1914-yilda.

Sobirjon yon daftarchasini juda yaxshi ko'rar, lekin do'sti uchun rozi bo'ldi. Uyga borib yon daftarchasini olib keldi. Maqsadiga erishgan Hasanboy do'mboq o'llari bilan daftarchani silab, beo'xshov tirjaydi...

Nihoyat qushcha orziqib kutgan damlar ham yetib keldi. Ona-bola uchrashdilar. Shirin diydordan barcha birdek xursand bo'ldi.

– Rahmat, senga, ey odam, bolasi, – dedi ona Chumchuq daraxt shoxiga qo'narkan. Meni ozod qilding. Bu yaxshiligingni aslo unutmayman. Sen juda yaxshi bola ekansan va har doim shunday bo'lib qol!

**Sobirjon ilk bor qilgan ishidan mamnuniyat hissini tuydi.**  
Munira ABDULLAYEVA

2011-yil – Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili

Ushbu yilning «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deb nomlanishi Dilnavozni yanada ruhlantirib yubordi. Chunki u tadbirkorlikning ilk qadamlarini tashlagan edi.

Dilnavoz NAJIMOVA Chirchiq shahridagi 26-maktabning 6-«B» sinfida a'lo baholarga o'qiydi. 1-sinfidan beri

sinf sardori. Adabiyotga juda qiziqadi. She'r o'qish jon-u dili. O'zi ham she'rlar mashq qilib turadi. Shuningdek, hunar o'rganishni ham unutmaydi. Qo'g'irchoqlar yasaydi, iplarni ishga solib ko'ylakchalar to'qiydi, uni biserlar bilan bezatadi.

## DARSDAN SO'NG YANA SABOQ

«Dugonajon, rahmat senga!». Bu gapni eshitish qanchalik yoqimli va maroqli. O'z qo'llaring bilan yasagan buyumlarni dugonalaringga sovg'a qilganingda kayfiyating qanchalik ko'tarilishini bilsangiz edi. Bu rag'bat menga yanada qanot berib, hunarni chuqur o'rganishga undaydi.

Darsdan so'ng uy vazifalarini bajarganimdan keyin, yana saboq olishga kirishaman. Oyijonimdan to'qish, tikish sirlarini o'rganib, ota-onamning eng yaqin yordamchisi bo'lishga harakat qilyapman.

Kelgusida O'zbekiston tamg'asi qo'yilgan mahsulotlar yanada kopayib, dunyo kezsa, ne ajab.

### BUVAJONIM SOVG'ASI

Yangi yilda buvajonimdan ajoyib sovg'a olganimni barcha tengdoshlarimga aytib, maqtangim kelyapti. Buvajonim meni «Tong yulduzi» gazetasiga bir yillik obuna qilib berdilar. Hozir mazza qilib har bir sonini o'qib, uqib boryapman. Ayrim sinfdoshlarim menga havas qilib, bu gazetaga obuna bo'lishdi.

Biz sinfdoshlar maktabning eng oldi sinfi, namunali

va a'lochi bo'lish uchun harakat qilamiz. Tarbiyaviy soatlarda gazeta va jurnallarni mutolaa qilamiz, o'qigan kitoblarimizni gapirib beramiz, bahslashamiz, fikrlashamiz, hatto o'zaro musobaqalashib, faqat oldingi safda bo'lishga intilamiz.

Sardorning vazifasi ham shu-da, o'z ortidan boshqalarni ham yaxshiliklar sari ergashtira olish.

Feruza SOYIBJON qizi yozib oldi

**Maktabdan kelayotib,  
birinchi o'qituvchim Muattar  
opani ko'rib qoldim...**

man. Axir bunda mening ham «hissam» borligi haqiqat-ku!

Ustoz, bizni maktab darvozasiidan kuzatayotib, yig'lab qolganingiz esingizdami? O'shanda sizning oldingizga qaytib borgim kelgan.

olganman. Faqat, Ustoz, Siz mening ko'z oldimda qanday qolgan bo'lsangiz, shunday yuring. Sizni juda yaxshi ko'raman!

Qalbm sado berdi: Muattar

Xoliqova!  
Shunaqayam  
xursand  
bo'ldimki...

Ustozimni  
aytmaysizmi?! Bir

soatga yaqin gaplashib turdik. Bilmadim, agar qo'ng'iroqlar xalaqit qilmaganda biz bir umr suhbatlashar edik, nazarimda. Maktabda ham xuddi shunday bo'lardi. Qo'ng'iroqlar chalinganini sezmay qolardik. To'g'irrog'i, eshitilmay qolgan-dek bo'lardi.

Bugun esa boshqacha bo'ldi: qo'l telefonlarimiz tinimsiz jiringlayverdi.

Hammasi ham ustozimning ko'zimga biroz keksayganday bo'lib ko'ringanlari yomon bo'ldi.

Esimdan chiqarolmayap-

**SIZNI YAXSHI  
KO'RAMAN!**

Va ancha kun esimdan chiqarolmay yurgandim. Bir kuni maktabga borsam, sizning atrofingiz birinchi sinf o'quvchilari bilan to'la edi. Men o'shanda o'tgan kunlarni sira qaytarib bo'lmasligini tushunganman.

Ustoz, endi mening oldimda Sizga munosib bo'lishdek ulkan burch turibdi. Men esa burch va vazifalarimni Sizning sa-boqlaringizdan yetarlicha

Sevinch  
NORQOBILOVA,  
Jahon Iqtisodiyoti va  
diplomatiya  
universiteti qoshidagi  
Shayxontohur  
akademik litseyi  
2-bosqich o'quvchisi



## TEST

1. Kishi organizmida necha xilga yaqin element borligi aniqlangan?  
A) 50 xilga yaqin;  
B) 60 ga yaqin;  
D) 70 ga yaqin.
2. Kishi organizmida necha grammga yaqin temir elementlari bo'ladi?  
A) 80 grammga yaqin;  
B) 90 grammga yaqin;  
D) 100 grammga yaqin.
3. Kishi organizmida necha grammga yaqin kalsiy bo'ladi?  
A) 1000 grammga yaqin;  
B) 500 grammga yaqin;  
D) 150 grammga yaqin.
4. Kishi organizmida necha grammga yaqin magniy elementlari bo'ladi?  
A) 60 grammga yaqin;  
B) 50 grammga yaqin;  
D) 70 grammga yaqin.
5. Kishi organizmida necha grammga yaqin natriy elementlari bo'ladi?  
A) 150 grammga yaqin;  
B) 100 grammga yaqin;  
D) 200 grammga yaqin.
6. O'rtacha og'irlikdagi kishi-ning organizmida necha chelakka yaqin suv bo'ladi?  
A) 5 chelakka yaqin;  
B) 4 chelakka yaqin;  
D) 1 chelakka yaqin.

Alisher ABDULLAJONOV  
tayyorladi

## YANA YANGI G'OYALAR



Mamlakatimiz maktablarida fan oylklarini namunali tarzda o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. Bu narsa o'z vaqtida o'quvchilarning bilimini oshirish, salohiyatini ko'tarishda asosiy omil bo'lmoqda. Poytaxtimizdagi 49-umumta'lim maktabida ham bu borada katta tajriba to'plangan.

Kuni kecha maktabda «Milliy g'oya turkumiga kiruvchi fanlar» oyligi yakuniga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Unda fan oyligini yuqori saviyada o'tkazishga muvaffaq bo'lgan T. Bagdasarova va N. Xolmuxamedova kabi tajribali ustozlarning samarali mehnatlari alohida e'tirof etildi. Pedagoglar o'zining har bir haftasini ma'lum bir mavzuga bag'ishlab, o'quvchilarni shu yo'nalishga doir o'z ishlanmalari bilan unda ishtirok etishga erisha olganlari bois, shunday yutuqlarga erishdilar. Samarali mehnatlari munosib taqdirlangan jonkuyar ustozlar yangi yilning dastlabki kunlaridanoq, yangi-yangi g'oyalar bilan ishga kirishdilar.

Zuhra MUHSINOVA

*Fabiat yor yuzidagi jamiyksi tirik mavjudot uchun muqaddas go'sha sanaladi. U barchamizni yediradi, ichiradi, kiydiradi, issiq va sovuqdan asraydi. Shuning uchun biz ham unga mehr qo'yamiz, «Onajonim» deya ardoqlaymiz. Bu mehr tabiatni avaylab-asrashi, boyliklarini ko'paytirish tuyg'usi bilan uyg'unlasha olmagina, haqiqiy sanaladi. Quyida qalbida tabiatga mehr tuyg'usi ildiz otgan tengdoshlaringiz ijodidan namunalar o'qiydiz.*

*Gulnoza tabiatdan juda ziyrak qiz. Shundanmi, yon-atrofida sodir bo'layotgan barcha voqea-hodisalarni, tabiatdagi o'zgarishlarni sinchkovlik bilan kuzatadi. Ayniqsa, bahor faslida borliqning betakror go'zalligiga mahliyo bo'lib, uzoq-uzoq sayr qilishni xush ko'radi.*

Bir kuni maktabdan qaytayotgan Gulnozaning ko'zi o'zlari yashaydigan ko'p qavatli uyning kiraverishidagi qaldirg'ochning iniga tushib qoldi. «Hademay bahor keladi, qaldirg'ochlarimiz yana qadrdon inlariga qaytib kelishadi» degan o'y xayolidan o'tishi bilan, Gulnozaning kayfiyati yanada ko'tarilib ketdi. Shu payt uning ko'zi qaldirg'och uyasidan chiqib turgan chumchuqning boshiga tushib qoldi. Yana bir chumchuq esa uchib kelib, uyaning tepasiga qo'nib oldi. Bu holdan ajablangan Gulnoza yugurgancha uyiga kirib, onasini so'roqqa tutdi:

– O'yijon, qaldirg'ochlarimizning inini chumchuqlar egallab olishibdi. Endi beozor bu qushchalar qayerda yashashadi?!

– Qizim, hali bahor kelgani yo'q. Qaldirg'ochlar qaytib kelishsa, balki inini bo'shatib berishar, – deya yupatgan bo'ldi onasi uni.

Kunlar ketidan kunlar o'tib, zumrad bahor ham yetib keldi. Moviy samoda qaldirg'ochlar charx urib ucha

(Voqeyi hikoya)



boshladi. Ularni ko'rgan Gulnoza chumchuqlar ega chiqib olgan qaldirg'ochlar inini tomon oshiqdi. Qarasa, unga qadrdon bo'lib qolgan qaldirg'ochlar chug'ur-chug'ur qilib, uyasi atrofida tinimsiz charx urishardi. Birovning uyasiga ega chiqib olgan zo'ravon chumchuqlar

## BARCHA BAROBAR EKAN...

esa ularni yaqinlashtirmaslikka harakat qilishardi. Qushlar o'rtasidagi havo jangini Gulnozaning ota-onasi, aka-opalari ham achinish bilan kuzatishdi. Lekin qaldirg'ochlarga hech qanday yordam bera olishmadi. Xullas, uyaga chumchuqlar egalik qilib olishdi. Qaldirg'ochlar esa qayergadir uchib ketishdi.

Oradan bir oy o'tgach, chumchuqlarning polaponlari borligi ayon bo'ldi. Ularga tinimsiz, yemish tashiyotgan ota-ona chumchuqlar polaponlarining chug'ur-chug'uridan o'zlarida yo'q shod edilar.

Ammo... Ularning quvonchi uzoqqa cho'zilmadi. Erta tongda maktabga otlangan Gulnoza eshigi oldida bir chumchuq polaponining o'lib yotganini ko'rib qoldi. Uni avaylabgina qo'lga olib, bir chekkaga qo'ydi. Ertasi kuni yana shu hol takrorlandi. Shu tariqa birorta ham polapon tirik qolmadi.

Aytishlaricha, qaldirg'ochning o'ziga ozor berish u yoqda tursin, hatto inini buzgan kishi ham bir umr baraka topmas emish...

Qissadan hissa shuki, tabiat qonuni oldida jamiyksi mavjudotlar barobar ekan.

**Malika JALILOVA,**  
Surxondaryo viloyati  
Uzun tumanidagi  
4-ixtisoslashgan maktabning 5-sinf  
o'quvchisi

## SHABBODA



*Ko'rinnmaydi ko'zga u,  
Kirmaydi hech so'zga u.  
Qayoqqadir shoshadi,  
Davonlardan oshadi.*

*Dovul, to'fon va bo'ron,  
Unga do'st-u qadrdon.  
Bulular bilan har choq,  
O'ynaydi qulashmachoq.*

*Qaysar bo'lsada garchand,  
Tabiatga u farzand.*

*Qarang-a,  
aziz bolajonlar, o'r-  
mondagi jonivor-  
larning ham maktabi,  
Paxmoqvoydek talabchan  
o'qituvchilari bo'lar ekan.  
Nima deb o'ylaysiz, bu  
haqiqatmikan yo tengdoshingiz – poytaxtdagi 128-  
maktab o'quvchisi Durdo-  
na Abduhamidovanning  
xayoliy tasavvuri  
mahsulimi?..*



## DANGASA BOLA



Gulmurod aka ishga ketayotib, o'g'liga tayinladi:  
– Anvar, hovlidagi va xonadagi gullarga suv quy, daraxtlarni oqlab chiq. Qo'y va echkiga o't terib ber...

Anvar otasini kuzatib, bog'ga chiqdi, lekin dangasaligi tutib, hech ish qilgisi kelmadi. Yana xonasiga kirib, televizorni yoqdi. Televizorda tabiat haqida ko'rsatuv bo'layotgan ekan. Anvar uni tomosha qilib

yo'tib, uxlab qoldi. Tushida, qo'lida bir ko'zacha paydo bo'libdi va uning ichidan jin chiqib: «Tila, tilagingni», debdi.

Anvar: «Men sendan arzimagan narsani so'rayman. Dunyodagi hamma daraxtlarni, gullarni yo'q qil. Mening ishlagim kelmayapti», debdi. Jin: «Tabiatsiz hayot bo'ladimi? Keyin afsus qilmaysanmi?», deb so'rabdi. Anvar gapida turib olibdi. Jin ham noiloj uning aytganini bajaribdi. Anvar atrofiga qarasa, hamma yoq xunuk bo'lib qolibdi. Havo yo'qligidan, hamma jonivorlar nafas ololmay qirilib ketibdi. Tevarak-atrof chang-to'zonga aylanibdi. Anvar to'rt tomonni qidirib, hech kimni topa olmabdi. Bu holdan qo'rqib, uning ham nafasi bo'g'ilibdi.

Anvar qiynalganidan uyg'onib ketdi. O'rtidan turib, yon-atrofga qaradi. Qarasa daraxtlar, gullar joyida turibdi, hozirgina ro'y bergan voqeani tushida ko'rganini bilib, juda xursand bo'ldi. So'ng otasi tayinlab ketgan ishlarni bajarish uchun g'ayrati jo'shib bog'ga chiqdi.

**Irodabonu AVVALBOYEVA,**

Toshkent shahridagi 274-maktabning 7-«D» sinf o'quvchisi

Sahifani Feruza JALILOVA tayyorladi



## SOVG'A

Oppoq sukunat qo'yniga g'arq bo'lgan Buxoro menga ertaknomo bo'lib tuyular, ko'z o'ngimda asriy toqu gumbazlar emas, afsonaviy shahzoda, malikalar, Qorbobo, Qorqiz va yana allakimlar gavdalanardi.

Shu tobda Qorbobo va Qorqiz xayolimda emas, o'ngimda namoyon bo'ldi. Akam ikkimiz boshlashib Devonbegi xonaqohi oldidagi keng maydonga chiqqanimizda, men hayratdan lol qoldim.

Maydonga uchi naq osmonga yetay-yetay deb turgan yam-yashil archa bezatilgan, uning son-sanoqsiz o'yinchoqlari ko'zni qamash-tirardi. Nina barglarga qo'nyotgan qor uchqunlari

*Yangi yil arafasi edi. Otam, onam va men Yangi yilni kutib olish uchun shaharlik amakimning Labihovuzga tutash hovlisiga kelgandik. Akam talaba, men esa 1-sinfda o'qirdim.*

ilohiy manzara kashf etgan, archa atrofida davra olib o'ynayotgan tengqurlarimning shodligi cheksiz edi. Akamning qistovi va daldasi bilan men ham davraga qo'shildim. Bolalar bo'ri, tulki, ayiq, sher va boshqa jonzotlar niqoblarini kiyib olishgandi. Akam bir zumda qayerdandir topib olgan

quyon niqobini qo'limga tutqazdi. Lekin sher va ayiq oldida quyon nima degan gap, niqobni kiyishni istamadim. Shu payt qarshimda paydo bo'lgan Qorqiz qo'limga yo'lbars niqobini tutqazdi.

Choshgohgacha xursandchilik qildik.

Bir mahal, Qorbobo hasasini do'qillatib kelib, qarshimda to'xtadi.

– Hoy, yo'lbarsvoy, sen «hoynahoy «a'lo» baholarga o'qisang kerak, shundaymi?

– Ha, shunday, shunday, – dedim shosha-pisha. Faqat bittagina «4»im bor, xolos.

Qorbobo bir zum o'ylanib turdi. Bitta «to'rt»i bor ekan, deb sovg'a bermay ketib qolsa-ya!..

– Yo'q, xayriyat, Qorbobo oliyanobekan, unday qilmadi.

– Bittagina «to'rt» bo'lsa yomon emas! Mana bu sovg'a senga! – dedi u qo'limga katta qog'oz o'raminini tutqazarkan.

Boshim ko'kka yetgan, chunki bunaqa chiroyli sovg'ani Qorbobodan birinchi marotaba olishim edi.

Akam bilan jo'namoqchi bo'lib turganimizda, bir chekkada xun bo'lib yig'layotgan 3-4 yoshlar chamasi-dagi qizaloqqa ko'zim tushdi. Ma'lum bo'lishicha, qizaloqqa kelganda Qorboboning sovg'asi tugab qolibdi...

– Bu yog'i qandoq bo'ldi? Akam bilan ko'z urishtirdim. U, sovg'ani qizchaga bersang yaxshi bo'lardi, dedi sekimgina. Men biroz taraddudlandim. Axir o'ramda nima borligini bilmasdim-da.

Ikkilanayotganimni ko'rgan akam, qizcha eshitmaydigan qilib, beraver, sen o'g'il bolasan-ku, – dedi.

Qo'limdagi sovg'ani qizchaga uzatdim.

U yig'idan to'xtab, sovg'ani oldi-yu, bag'riga bosdi. Opasi menga minnatdor qarab, takror-takror rahmat aytardi.

Akam menga Shohrud soholidagi do'kondan Qorboboning sovg'asidan ham kattaroq sovg'a olib berdi.

Men juda shod edim. Samodan to'kilib turgan qor uchqunlari qosh-kipriklarimga qo'nib, tanamga huzur baxsh etar, chor-atrof ko'zimga juda go'zal ko'rinar edi...

ikkilanmay uya og'ziga borib, o'tirib olibdi. Kechasi bilan yomg'ir tinmabdi, sichqoncha har qancha sovuq bo'lmasin, tishini-tishiga qo'yib chidabdi. Ertalabga yangi yomg'ir tinib, suv yerga singib ketibdi. Sichqoncha iniga qaytibdi. Kun yorishib chumolilar tashqariga chiqishibdi. Birlari bir bo'lak pishloq, birlari nonning ushug'ini olib kelib, sovuqdan dir-dir titrab turgan Sichqonchani to'ydirishibdi. Unga uyalarida asrab qo'ygan yangi oq qalpoqchani sovg'a qilishibdi. Sichqoncha oq qalpoqchani kiyib, sayrga chiqibdi. Uni tomosha qilgani bulbullar, chumchuqlar, hatto suvaraklar ham kelishibdi.

SHAHNOZA



(Yangi ertak)

## OQ QALPOQLI SICHQONCHA

Sichqoncha qish kunida tug'ilibdi. Ota-onasi xursand bo'lib, yegulik olib kelish uchun tashqariga chiqishibdi. Ochofat mushuk uya oldida poylab turgan ekan, ikkalasini yeb qo'yibdi. Sichqoncha yetim bo'lib qolibdi.


Uch kun ota-onasini kutib, qorni rosa och qolib, oxiri inidan bosh chiqarib, atrofini kuzatibdi. Chumolilar katta non ushug'ini sudrab ketishayotgan ekan. Sichqoncha: «Non, non!» deb

chiyillabdi. Chumolilarning rahmi kelib, unga non ushug'ini berib ketishibdi. Sichqoncha rahmat aytib, qornini to'yg'azibdi.

Shu tariqa, chumolilar yoz bo'yi Sichqonchani boqishibdi. U kundan-kun o'sib-ulg'ayibdi.

Kuz kelibdi. Bir kuni to'satdan sharros yomg'ir yog'ib, suv chumolilar uyasi-gacha bosib kelibdi.

Sichqoncha qarasa, hade-may uyani suv bosadi. Hech



*Bolalar! Shoir bobongiz Miraziz A'zamning Siz bolajonlarga atalgan «Metallurg», «Aqli bolalar», «Senga nima bo'ldi?», «G'alati tush», «Yer aylanadi», «Bir cho'ntak yong'oq» kabi bir-biridan qiziqarli kitoblarini o'qigansiz. Yetmish besh bahorni qarshilagan shoir bobongiz hamon sermahsul ijod qilyaptilar. Quyida ularning ijodidan namanalar o'qiysiz.*



## YONG'OQNING UMRI

Yong'oq ulg'aydi. Bir kuni pishdi. Po'stlog'i – chophonini yorib Pastga tushdi. U minnatdor:

Quyoshdan nuri uchun, Yomg'irdan ho'li uchun, Yerdan sharbati uchun, Shamoldan nafasi uchun, Odamlardan parvarishi uchun...

Har holda yomon yashamadi yong'oq.

## KO'ZLARI XAYOLGA TOLGAN BIR BOLA

Ko'zlari xayolga tolgan hoy bola, Oriqqina bola bir jo'jasimon, Bilaman, sen hech vaqt bo'lmasan yo'g'on, Ko'zlari xayolga tolgan hoy bola.

Bo'lmasang bo'lmasan, shunga ham g'ammi, Faqat so'zlaringda bo'lmasin ola. Zo'r bo'lsin o'qigan kitobing jami, Ko'zlari xayolga tolgan hoy bola.

Seni chetlab o'tsin kulfat va yolg'on, Haqiqat yo'lingda bo'lsin mash'ala. Qalbingni ayamay yashayver omon. Ko'zlari xayolga tolgan hoy bola.

Ichki dunyolari o'yga boy bola, Yigitga ko'rk bo'lar mardlik, epchillik. Sen ham epchilsan-ku, sen ham mardsan-ku, Ko'zlari xayolga tolgan hoy bola.

## YANGI RUKN:

Do'stingiz kim?  
SPORT KOSHONASI

Aziz bolajonlar! Sport bilan do'stlashishni xohlaysiz-u, ammo qaysi sport turi bilan necha yoshdan shug'ullanish lozimligini bilolmayapsizmi? Bu borada sport sahifamizda ochilgan «Do'stingiz kim?» nomli yangi ruknimiz sizga yordam beradi. Maqsadimiz – milliy o'yinlarni ham unutmaslik, har oyda bir marotaba e'lon qilinadigan ruknda siz biror milliy o'yinlarimizdan birini o'rganib borasiz.

Keling, sport bilan shug'ullanishni necha yoshdan boshlash mumkin, degan savolga oydinlik kiriting olaylik. Mutaxassislar, albatta, yetti yoshdan shug'ullanishni ma'qul deb topganlar. Chunki bu yoshdan organizmingiz anchagina baquvvatlashgan bo'ladi. Jismoniy mashqlar kuch talab qilishi bois, shifokor maslahati va bolaning iqtidoriga qarab sport turini tanlanishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa yosh sportchining keyinchalik tanlagan yo'nalishi bo'yicha yuqori natijalarni qo'lga kiritishda muhim omil bo'lishi tayin. Sahifamizda bolajonlarga sport turini tanlash borasida baholi qudrat maslahatlar beramiz. Shoyad, bu urinishimiz qaysidir bolajonning katta sport olamiga kirishiga turtki bo'lsa.



## UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIK

Bu yo'nalish bo'yicha 5-7 yoshdan boshlab tayyorgarlik ko'rish mumkin. U tufayli bolada chidamlilik va chaqqonlik fazilatlarini shakllanadi. Bu esa o'z navbatida boshqa sport turlari bilan shug'ullanish jarayonida o'z samarasini beradi.



## SUZISH

Suzish bilan shug'ullanish asab tizimlari faoliyatini oshiradi, suyak va mushaklar tizimini rivojlantiradi. Organizmning chidamliligini oshirib, o'pka faoliyatini yaxshilaydi.

BADMINTON  
VA TENNIS

Stol tennis va katta tennis. Bu sport turlari bilan muntazam shug'ullansangiz, serg'ayratlilik, ephil, intiluvchan, chidamli bo'lasiz. Yelka mushaklaringiz faolligi oshadi. Jismonan barkamol va intellektual salohiyat egasi bo'lishingizda asqotadi.

KURASHNING  
BARCHA  
TURLARI

Mushaklarning durkun o'sishiga, gavdaning ko'rkamlashuviga foydasi bor. Harakat tezligi, g'alabaga intilish ruhini o'rganasiz. Shuningdek, atletlarga xos gavda tuzilishiga ega bo'lasiz.



## SHAXMAT-SHASHKA

Bolalarning mantiqiy fikrlash darajasini oshishiga xizmat qiladi. Eslash va e'tiborni jamlash hislarini rivojlantirib, salohiyatini o'stiradi. Shaxmat va shashka bilan shug'ullanish asnosida asab tizimlarining harakatchanligi seziladi.

## YENGIL ATLETIKA

8-9 yoshdan quyidagi sport turlari bilan shug'ullanish tavsiya etiladi: sprint, sakrash, uloqtirish. Bu sport turlari organizmning faolligini oshiradi. Chidamli, chaqqon bo'lishga xizmat qiladi. Mashg'ulotlarning ochiq havoda o'tkazilishi esa barkamol bo'lib voyaga yetishishingizda asosiy omildir. Tomirlarda qon aylanishi yaxshilanishi kuzatiladi.

FUTBOL, BASKETBOL,  
VOLEYBOL, QO'L TO'PI

Yuqoridagi sport turlari bilan 10-11 yoshdan shug'ullanish tavsiya etiladi. Bu sport turlari sizda qiyin holatlarda tez mo'ljalni olish, chaqqonlik, mohirlik, dovyuraklik fazilatlarini tarbiyalab, aql-idrokingiz go'zal bo'lishiga xizmat qiladi. Shuningdek, qa'tiy intizomga, o'yindagi sheriklaringizni tez tushunishingizga o'rgatadi. Muntazam shug'ullanish asnosidagi harakat organizmingizda yog'lilik darajasini pasaytiradi. Bu sport turlari bilan «do'stlashgan» bolalarning qon aylanishi yaxshiligi, yurak faoliyati a'lo darajada bo'lishi, gavda tuzilishining takomillashuvi kuzatiladi.



Qadimdan xalqimiz tomonidan o'yab topilgan harakatli o'yinlar o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turgan. Toshkent davlat Sharqshunoslik institutining 2-bosqich talabasi Botirjon Normurodov qadim Surxonda bolalar o'yin kelgan xalq o'yinlari haqida jazzi tadqiqotlar o'tkazib, ko'plab ma'lumotlar to'plabdi. Ulardan birini Siz bolajonlar e'tiboriga havola etmoqdamiz.

## «DO'L-DO'L»



## O'YINI

«Do'l-do'l» o'yini qadimda bolalarni o'vuntirish va vaqtlarini zavqli o'tkazishga yordam bergan. O'yinda asosiy vosita yong'oq hisoblanadi. «Do'l-do'l» so'ziga izoh bersak: o'yinning nomi tegirmon do'liga o'xshab, devor tubidan yoki biror balandlik tubidan kichkina chuqurcha qazishdan olingan. Bu o'yinda uchto'rt nafar va undan ko'p bolalar ishtirok etsa bo'ladi. Do'l boshida turgan bola «Do'l boshi» deyiladi. Har bir bola do'l boshidan 3-4 metr uzoqlikda bo'lib, do'lga qarab o'ntagacha yong'oqni otadi. Do'lga kirgan yong'oqlar juft bo'lsa, do'l boshi shu ishtirokchiga shuncha yong'oq beradi. Aksincha, do'lga toq yong'oq kirsas, do'l boshi o'sha ishtirokchidan shuncha yong'oq oladi. Shunday qilib, o'yinning oxirida bir yoki ikki kishi yuzlab yong'oq yutib oladi. O'yin shu saylda 2-3 soatlar davom etadi. Ushbu o'yin bolaning mo'ljalga bexato urish, ya'ni merganlik, chaqqonlik va zukkolik qobiliyatini o'stiradi. Bolada o'ziga bo'lgan ishonch ortadi. Bu hayoti davomida, albatta, qo'l keladi.

Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi

O'ZINGNI SINAB  
KO'RI

Siz, aziz bolalar, o'zbek adabiyotining zabardast adibi Oybek domlaniy «Bolalik» tarjimai hol asarini yaxshi bilasiz. Quyida ana shu asardan ayrim parchalarni e'tiboringizga havola etyapmiz. Ularni asarning qaysi boblarida uchratgansiz. Tushunmagan so'zlarni lug'at dafstaringizga yozib qo'ying. Ma'nosini so'rab bilib olsangiz, bizga ham jo'nating: «Tong yulduzi» gazetasi, «O'zingni sinab ko'ringa deb yozishni unutmang.

## DEMAK:

## BIRINCHI KO'CHIRMA

– «Men bobomning qo'lidan tortaman:  
– Handalak...  
– «Tek tur, huvari... Hali pishgani yo'q...»  
– deydi bobom». «Huvari» qanday ma'noni anglatadi?

## IKKINCHI KO'CHIRMA

– «Sen terakdan bir novda kesib, yaxshilab yo'n!  
– Xo'p bo'ladi, ustozim, jonim bilan! – bukiladi shogird qo'lini ko'ksiga qo'yib. Bir marta ham buyurgan edingiz. Xo'p, ikkita xatcho'pni yaxshilab yo'nib kelaman, – deydi va shoshilib chiqib ketadi». «Xatcho'p» nima? Bu to'g'rida nima bilasiz?

## UCHINCHI KO'CHIRMA

«Pochcham objuvozning boshida edi. Soqollari o'sgan, ust-boshi chang-to'zon». «Objuvoz» haqida eshitganmisiz?

## TO'RTINCHI KO'CHIRMA

«Mirshab indamaydi. Bobomning eshigini taq-taq uradi qamchi bilan:  
– So'fi kim?»  
Qadimda kiylarni so'fi deyishgan?

## BILASIZMI?



Yer shari-ning taxminan 70 foizi suv bilan qoplangan va uning atigi bir foizi ichish uchun yaroqlidir. Shu sababli suvni ehtiyot qilish, tejash har bir insonning burchidir.

\*\*\*  
Yer dagi suv zaxiralarining umumiy og'irligi yer vaznining atigi 2 foizini tashkil etadi.

\*\*\*  
Quruqlikning o'ndan bir qismi muzliklardan iborat.

\*\*\*  
So'nggi 25 yil ichida Arktika muzlari qalinligi 120 santimetrga kamaygan.

\*\*\*  
Shimoliy Qubda yiliga 186 kun tun hukmronlik qiladi.

\*\*\*  
Har yili dunyoda 3000 dan ortiq zilzila kuzatiladi.



Jizzax shahridagi 11-sonli umumta'lim maktabining «Iqtidorli bolalar» sinfiga sinovlarsiz qabul qilingan Mirziyo Soliyev ustozlari ishonchini oqladi.

Hozirda 3-«A» sinfda tahsil olayotgan tengdoshingiz a'lo o'qishi, namunali xulqi, jamoat ishlaridagi faolligi bilan sinfdoshlariga namuna bo'lib kelyapti. Mirziyoning san'atga, she'riyatga ham mehri bo'lakcha. Yosh bo'lsa-da, qo'shiqchilikning murakkab – mumtoz yo'nalishida qo'shiq aytishga qiziqadi.

## JAJJI HOFIZ



– Mirziyo eng a'lochi, iqtidorli o'quvchilarimdan biri, – deydi ustozlari Ortig'oy opa shogirdi bilan faxrlanib. – Mening yaqin ko'makchim, she'rlar mashq qiladi, qo'shiq aytadi. Xullas, sinfimizda o'tadigan barcha tadbirlarimizning mazmunli, maroqli o'tishiga o'z hissasini qo'shib kelyapti.

Mirziyo nafaqat maktab tadbirlari, balki yurtimizda nishonlanadigan umumxalq bayramlariga ham fayz kiritib kelayotgan yosh iste'dod sohiblaridan sanaladi. Mustaqillik, Navro'z bayramlarining Jizzax viloyatidagi shodiyonalari qatnashib, shirali ovozi bilan kattayu kichikka zavq ulashadi. Uni tanigan-bilganlar «jajji hofiz» deya erkashadi. Bu iste'dod Mirziyoga hofiz bobojonisi Solijon Zokirovdan bobomeros bo'lsa, ne ajab?!

AZIZA

**Jannatmakon diyorumizning yer osti va usti boyliklari juda ko'p. Ammo, bu qazilma boyliklari bitmas-tuganmas zaxiraga ega, degani emas. Shu sababli quyosh energiyasidan unumliroq foydalanish maqsadida butun dunyoda ko'plab quyosh batareyalari ishlab chiqarilmoqda. Yurtimizda bu soha bo'yicha qanday ishlar olib borilayotganligi xususida Toshkent davlat texnika universiteti professori, fizika, matematika fanlari doktori Xolmurod Iliyev bilan suhbatlashdik.**

– Xolmurod aka, quyosh batareyalari qanday tayyorlanishi to'g'risida bolalarga gapirib bersangiz va bu boradagi imkoniyatlarimiz qay darajada?

– Qadimda ota-bobolarimiz uzum, o'rik, qovun, olma, shaftoli va boshqa mevalarni quyosh nurida quritib, qo'qisini tayyorlaganlar. Quyosh energiyasidan foydalanish azaldan mavjud bo'lgan. Biz serquyosh yurtda yashaymiz, shuning uchun quyosh batareyalaridan foydalanish imkoniyatimiz katta. Iyun oyida yorug'lik kun uzunligi 16 soat, dekabrda esa 8 – 10 soatni tashkil etadi. Yoz oylarida 320 – 400 soat ochiq quyosh nuri to'g'ri keladi. Shu bois ham bizda energiya yetishmovchiligi bo'lmaydi, batarealar bekam-u ko'st ishlaydi.

– Quyosh batareyalari ko'proq qaysi maqsadlarda ishlatiladi?

QUYOSH  
BATAREYALARI

Sahifalarni bezatishda Osimxon VOSIXONOV chizgan rasmlardan foydalanildi

– Masalan, quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirish, uyimizni isitish hamda issiq suv bilan ta'minlash, toza ichimlik suvi olish, quyosh oshxonalarida ovqat pishirish, quyosh tanderida non yopish, umuman, xalq xo'jaligining ko'pgina sohalarida ishlatish mumkin. Shuning uchun xalqimizning bu sohaga qiziqishi juda katta. O'zimiz yasagan quyosh batareyalarini talabgorlarga to'liq yetkazib berolmayapmiz. Hozirda katta zavod qurilishi loyihalashtirilayapti. Umid qilamiz, zavod ishga tushgandan keyin ko'p sohalar jadal rivojlanib ketadi.

– Bolalar necha yoshdan bu uskunalarini ishlatishni bilishlari kerak?

– Quyosh batareyalarini yoqish, o'chirish juda oson va xavfsiz. Aslida bolalarni bog'cha yoshidan tanishtirib borsak bo'ladi. Lekin maktab darsliklari bilan tanishib chiqqanida, bu haqda hech narsa kiritilmaganligini ko'rdim. Quyosh batareyalarini qanday ishlatish maktab dasturiga kiritilmagan bo'lsa-da, qo'shimcha dars sifatida tushuntirib borilishini taklif qilardim. Chunki, hech bir bola rivojlanish jarayonidan ortda qolmasligi kerak...

Yaratuvchanlik barobarida yosh avlodning ertasiga ham kuyunchaklik bilan e'tibor berayotgan Xolmurod akaday olimlarimiz bor ekan, kelajagimiz gullab yashnashi begumon.

Barno RUSTAMOVA

BOSH MUHARRIR:  
To'liqin HAYITOVDizaynerlar:  
Fazliddin SHOYODGOROV,  
Olovuddin ORIPOV  
Navbatchilar:  
Ma'mura MADRAHIMOVA,  
Yusuf ABDULLAYEVGazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.TAHRIR HAY'ATI:  
Avaz MARAHIMOV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari).  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Dilmurod RAHMATILAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:

Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@bk.ru  
www.tongyulduzi.uz  
Tel: 244-27-25, 244-63-08Tel/faks:  
(99871) 244-38-10«O'zbekiston»  
NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni  
chiqadi. Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 65453  
Buyurtma N: J 913

## Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.